



XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 21-aprel

VII-25-51-7-102-K/26

Paxtachi tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 665-son qaroriga asosan, Paxtachi tumanidagi ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash ishlari bo‘yicha 2026-yil uchun dastlabki manzilli ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 665-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq yigirma beshinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 665-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari A.Shermatovning taklifi inobatga olinsin.

2. Paxtachi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash ishlari bo‘yicha 2026-yil dastlabki manzilli ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Qilichev) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (A.Shermatov) tegishli mas‘ul idoralar bilan birgalikda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash ishlari bo‘yicha 2026-yil dastlabki manzilli dasturida belgilangan rejalarni to‘liq ijrosini ta‘minlashi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Qilichev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda manzilli ro‘yxatda belgilangan mahalla fuqarolar yig‘ini va ko‘chalarda ta‘mirtalab yo‘llarni belgilash, ichki yo‘llarni ta‘mirlash va asfaltlash, ko‘cha yoritgichlari va piyodalar yo‘laklarini yangilash, yo‘l belgilarini o‘rnatish va xavfsizlik choralari ko‘rish hamda har bir mahalla kesimida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Husanov) tumanda Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash ishlari bo‘yicha 2026-yil uchun dastlabki manzilli ro‘yxatida belgilangan hududlarda amalga oshirib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan vakolatlar doirasida manzilli ro‘yxatdagi mahallalarda ishlarning sifatli va to‘liq bajarilishi yuzasidan deputatlik nazorati o‘rnatish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Musirmanov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (S.Qilichev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**ESHONKULOV
ELDOR
UKTAMOVICH**

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2026-yil 21-apreldagi
VII-25-51-7-102-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi 665-son qaroriga muvofiq, Samarqand viloyati Paxtachi tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi ichki
yo'llarni saqlash va joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha 2026-yil uchun
MANZILLI RO'YXATI**

№1	№2	Obyektlar nomi va manzili	Obyektning boshlanish va foydalanishiga topshirish yili	Loyihaviy quvvati		Obyektning umumiy qiymati (shartnoma asosida)	01.01.2026 holatiga obyektning moliyalashtirish qoldig'i	Jami kapital qo'yilmalar	Shu jumlaan						01.01.2027 holatiga yildan yilga o'tuvchi obyektning moliyalashtirish qoldig'i	Texnik ko'rik natijasiga ko'ra tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi sanasi va raqami	Pudrat tashkilot nomi		
				Yo'lining harakat uzunligi	Yo'lining ta'mirlanishi belgilangan qismining hajmi				Qurilish - montaj ishlarining umumiy qiymati	Asfalt-beton qoplamali yo'lni qisman (paydo bo'lgan chuqurcha va yo'l buzilishlarni kartasimon usulda joriy) ta'mirlash			Tuproq yo'llarni shag'allashtirish					Boshqa xarajatlar	
				metr	metr2					metr*	metr2*	summa si	metr*	metr2*					summa si
Jami ajratilgan mablag':				13.946,5	46.612,6	0,0	0,0	4.400.000,0	0,0	13.946,5	46.612,6	0,0	0,0	0,0	0,0	65.024,6	0,0	0,0	
Jami xarajat:								65.024,6											
<i>shu jumladan:</i>																			
I.	Tuman markaziy ko'chalari:			7.075,5	22.564,1	0,0	0,0	31.477,0	0,0	7.075,5	22.564,1	0,0	0,0	0,0	0,0	31.477,0	0,0	0,0	
1	Amir Temur MFY			2.415,0	8.452,5	0,0	0,0	11.791,2	0,0	2.415,0	8.452,5	0,0	0,0	0,0	0,0	11.791,2	0,0	0,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
	1	Mevali ko'chasi	2026 y	1.515	5 302,5			7.397,0	0	1.515	5 302,5	0,0				7.397,0			
	2	Yoshlik ko'chasi	2026 y	900	3 150,0			4.394,3	0	900	3 150,0	0,0				4.394,3			
2	Jahonobod MFY			280,0	980,0	0,0	0,0	1 367,1	0,0	280,0	980,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1 367,1	0,0	0,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
	1	Maroqand - ko'chasi	2026 y	280	980,0			1.367,1	0	280	980,0	0,0				1.367,1			
3	Bo'ston MFY			693,0	2.425,5	0,0	0,0	3.383,6	0,0	693,0	2.425,5	0,0	0,0	0,0	0,0	3.383,6	0,0	0,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
	1	Bog'ishamol ko'chasi	2026 y	693	2 425,5			3.383,6	0	693	2 425,5	0,0				3.383,6			
4	Mirzo Ulug'bek MFY			2 405,5	8 419,1	0,0	0,0	11 744,7	0,0	2 405,5	8 419,1	0,0	0,0	0,0	0,0	11 744,7	0,0	0,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
	1	Navoiy ko'chasi	2026 y	604	2 115,6			2.951,3	0	604	2 115,6	0,0				2.951,3			
	2	Sobir Raximov ko'chasi	2026 y	200	700,0			976,5	0	200	700,0	0,0				976,5			
	3	Mirzo Ulug'bek ko'chasi	2026 y	151,0	528,5			737,3	0	151,0	528,5	0,0				737,3			
	4	Kanal bo'yi ikki tomoni ko'chasi	2026 y	1 450,0	5 075,0			7.079,6	0	1 450,0	5 075,0	0,0				7.079,6			

ming.so'mda

